

SHE'RIY MATNLARDA ALLITERATSIYA HODISASINING IFODALANISHI.

F. Jumayeva

Ilmiy rahbar: JDPU O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti,

Ahrorova Guljahon

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Badiiy matnni nafaqat adabiy nuqtayi nazardan, balki lingvistik jihatdan ham tahlil qilish ijodkor mahoratini anglashga katta yordam beradi. Badiiy yaratilarning estetik go'zalligini namoyish etish va o'quvchiga ta'sir etishida fonetik birliklarning ahamiyati kattadir. Ushbu ishimizda fonetik birliklardan alliteratsiya va uning she'riy matnlarda qo'llanish o'rinlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Matn, fonetik birliklar, alliteratsiya, to'liq alliteratsiya, noto'liq alliteratsiya, tavze.

Аннотация: Анализ художественного текста не только с литературной, но и с лингвистической точки зрения во многом поможет понять мастерство художника. Фонетические единицы имеют большое значение в проявлении эстетической красоты художественного произведения и воздействии на читателя. В данной работе объясняется аллитерация из фонетических единиц и ее использование в поэтических текстах.

Ключевые слова: Текст, фонетические единицы, аллитерация, полная аллитерация, неправильная аллитерация, таузе.

Abstract: Analyzing the artistic text not only from a literary point of view, but also from a linguistic point of view will greatly help to understand the artist's skill. Phonetic units are of great importance in showing the aesthetic beauty of an artistic creation and affecting the reader. In this work, alliteration from phonetic units and its use in poetic texts are explained.

Key words: Text, phonetic units, alliteration, complete alliteration, incorrect alliteration, tavze.

Og'zaki nutqda insonlarning axborot uzatish jarayoni erkin bo'lib, ular o'z hissiyotlarini turli xil shakllarda: mimika, qo'l harakatlari, alohida tovushlarga urg'u berish asosida ifodalashi mumkin bo'ladi. Lekin yozma matnda, asosan, badiiy asarlarda esa ushbu hissiy kechinmalarni tovushlarni takrorlash, ularni qavatlash, ikkilantirish orqali ifodalash mumkin. Shu sababli ham fonetik usullar: alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabilar alohida ahamiyatga egadir. Ijodkor tomonidan fonetik vositalarning qo'llanilishi ma'noni kuchaytirish va uni o'quvchi qalbiga ohanrabodek kirib borishiga xizmat qiladi.

Tilshunos olim A. Abdullayev tasnifiga ko'ra, fonetik usul bilan ma'no kuchaytirishning quyidagi ko'rinishlari mavjudligini ko'rish mumkin:

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish (zarb urg'u);
- 2) unlini cho'zish (kvantitativ urg'u);
- 3) undoshni qavatlash (geminatsiya) [l. 9-b]

Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, yozma nutqda ham tovushlarni stilistik vazifasi namoyon bo'la oladi. Badiiyatda lirik qahramon va personajning his-tuyg'ulari tovushlar asosida ham aniq sezilishi mumkin. Aynan badiiyatda tovushlarning roli xususida E.

Bagritskiy shunday deydi: “She’rning har bir harfi organizmdagi hujayraga o’xshaydi va u doimo harakatda. She’rda o’lik hujayralar bo’lmaydi”, S. Marshak esa: “She’rda nafaqat har bir so’zga, balki har bir tovush, har bir unli, har bir undoshga ma’no yuklatiladi”,– deb ta’kidlaydi [2].

Nasriy asarlarda yozuvchi muayyan ma’no va munosabatlarni, qahramonlarning ruhiy holati, emotsiyalarini ifodalash uchun unli larni cho’zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so’zlarni noto’g’ri talaffuz qilish, tovush orttirish, tovush tushirish kabi usullardan foydalanadi. Biroq she’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari yanada yaqqolroq ko’zga tashlanadi va shoir: alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi fonetik usullarni asar mazmunini boyitish, qahramonlar kechinmalarini aks ettirish, nutqning musiqiyligi hamda ta’sirchanligini oshirish uchun qo’llaydi.

Tadqiqotimizda she’riy matnlarni o’rganishni maqsad qilgan ekanmiz, tilshunoslikning fonetika, grammatika va stilistika bo’limlariga murojaat qilamiz. Bu esa ushbu tarmoqlarni o’zaro yaqinlashishini taqozo etadi.

Til birliklarining denotativ ma’nosiga konnotativ ma’no yuklash nafaqat leksik-grammatik shakllar bilan, balki fonetik va grafik belgilar orqali ham amalga oshiriladi. She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she’rda o’ziga xos jozibador ohang bo’ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo’llash natijasida erishiladi.

Alliteratsiya – bu she’rda yoki nasriy matnda bir xil yoki o’xshash tovushlarning (odatda undosh tovushlarning) takrorlanishi bilan hosil qilinadigan fonetik usuldir.

Azim Hojiyevning tilshunoslik terminlari izohli lug’atida alliteratsiyaga shunday ta’rif berilgan: Alliteratsiya (lot. “litera” so’zidan olingan.) she’riy nutqdagi har bir misrada bir xil undosh tovushlarning takror ishlatilishi, ya’ni nutqda tovushlarning mos kelishi [3.12-b].

Matn tahliliga doir tadqiqotlar olib borgan tilshunos Ma’rufjon Yo’ldoshev esa “she’riy nutqda misralar, undagi so’zlar hamda bo’g’inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo’llanishi alliteratsiya deyilishini ta’kidlab” alliteratsiyaga yanada aniqroq ta’rif berib o’tadi [5.68-b].

Alliteratsiya adabiy asarlarning musiqiyligini oshiradi, ularga ritm va melodiya beradi hamda o’quvchiga esda qolarli ta’sir ko’rsatadi. Bu vosita, ayniqsa, she’rlar va bolalar uchun yozilgan asarlarda keng qo’llaniladi. Alliteratsiya she’rning tovush jihatdan uyg’un bo’lishini ta’minlaydi va o’quvchining diqqatini muayyan so’zlarga yoki g’oyalarga qaratadi.

Lirika olamida alliteratsiya deyilganda birinchi navbatda, adabiyot osmonining yorqin yulduzlarida biri Erkin Vohidovning “Qaro qoshing” she’ri ko’z o’ngimizga keladi. Haqiqatdan ham ushbu she’r to’liq alliteratsiya asosiga qurilgan deyishimiz mumkin.

Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.
Qilur qatlima qasd qayrab —
Qilich qotil qaroshing, qiz.

Ushbu she’rda ko’rib turganimizdek so’zlar faqat “Q” harfi bilan boshlangan. Bu, albatta, she’rga musiqiylik berishi bilan bir qatorda o’quvchiga o’ziga xos kayfiyat baxsh etadi. Unda shoir shakl va ma’no uyg’unligini saqlagan holda bir harf bilan boshlanuvchi

so'zlarni go'yo dur donalarini marjon ipiga terbanday terib chiqadi va o'zining tom ma'nodagi so'z san'atkori ekanligini go'zal tarzda namoyish etadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganish asnosida hamda tahlil qilingan misollarni kuzatgan holda alliteratsiyani shartli ravishda 2 xil turga ajratib olsak bo'ladi.

1.To'liq alliteratsiya.

2.Noto'liq yoki qisman alliteratsiya.

To'liq alliteratsiyada nasrda yaxlit gaplar, nazmda esa barcha to'rtlik yoki butun she'r bir xil harfli so'zlar bilan boshlanadi.

Bunga yuqorida keltirgan E.Vohidovning "Qaro qoshim" she'rini misol qilib olishimiz mumkin.

Hamda yosh shoiralardan Ogahiy nomidagi ijod maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Saida Safo qalamiga mansub ushbu she'rni ham kiritib o'tsak bo'ladi.

Salqin saharlarda sog'inchli salom,

Sizga sadoqatli Saidangizdan.

Sevgisi sababli savdoyi sanam,

So'zsiz saodatli Saidangizdan... [8]

Ushbu she'rda barcha so'zlar bir xil "s" harfi bilan boshlangan bo'lib, bu o'ziga xos ohangni tashkil qilmoqda. Bu kabi she'rlarni ko'plab shoirlar ijodida kuzatishimiz mumkin.

To'liq alliteratsiyali she'rlar ohangdorlikni yuzaga chiqarishi tabiiy jarayon, lekin butun boshli she'r mazmunini bir butun shakldorlikka singdirib bo'lmaydi. Chunki shakl ortidan quvish asnosida she'rning mazmuniga putur yetishi mumkin. Muallif qalb istaklarini ochib berish uchun yetarli so'zlarni topa olmay qoladi.

To'liq alliteratsiya namunalarini Elbek shoir ijodida ham uchratamiz.

Ko'klamda ko'karsa ko'k ko'katlar,

Ko'klarga ko'milsa katta-kattalar,

Ko'm-ko'k ko'karib ko'rinsa ko'llar,

Ko'ngilni ko'tarsa ko'rkli gullar...

[7] (1921)

Ushbu she'rda ham bir xil undoshlar takrori she'rga o'zgacha ohangdorlik baxsh etib, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan yaqinlashtirgan desak o'rinli bo'ladi.

Noto'liq alliteratsiyada nasrdagi bir qator so'zlar hamda she'r misralaridagi barcha so'zlar bir xil harflar bilan boshlanishi aniq talab qilinmaydi. Matndagi so'zlarda yoki bo'g'inlarda ohangdosh undosh tovushlar takrorlanadi. Aniqroq aytganda, bir undosh tovush boshqasiga nisbatan ko'proq ishtirok etadi va tirgak tovush vazifasini bajaradi.

Muhammad Yusuf qalamiga mansub ushbu she'riy parchalarda ham noto'liq alliteratsiyaning qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz:

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim.

Bo'lar elning bolalari bir-birin der,

Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.

Kapalakday kelib, qoshingga qo'nib,

Ko'zingga termulib umrim o'tsaydi...

Misralardagi takror qo'llangan undoshlar she'rning o'ziga ohangini ta'minlab turibdi. Shuningdek nutqiy ifodalilikni oshishiga xizmat qilmoqda.

Alliteratsiya takrorning bir ko'rinishi bo'lib, misralar, so'zlar yoki bo'g'inlar boshida, oxirida bir xil undosh tovushlarning uyg'un holda qo'llanishi asosida asarga beqiyos ohangdorlik, musiqiylik baxsh etadi. Sharq she'riyatida betakror musiqiylik baxsh etuvchi vosita sifatida keng qo'llangan ushbu hodisa mumtoz adabiyotda "tavze"(ar. taqsim qilmoq, joylashtirmoq san'ati deb yuritilgan [4.50-b]. Ko'rib turganimizdek poetik vositalardan biri takror, asosan, tovushlar takrori natijasida yuzaga keladi. Tilshunos R.Qo'ng'urovning ko'rsatishicha, "Shoir va yozuvchilar tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttiribroq ko'rsatish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish niyatida ko'proq she'riy asarlarda, ba'zan prozada ham ayrim tovush yoki tovushlar birikmasi, so'z yoki so'zlar birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg'u beradi, takrorlaydi" [6.697-b].

She'riyatda alliteratsiya qofiya yaratish uchun ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. She'rni hamma misralarida ham bir xil tovushlar takrorini uchratmaymiz. Ba'zan ayrim misralardagina alliteratsiyani uchratamiz:

Qora qushlar qo'narlar

Majnuntolning shoxiga. (E.Vohidov)

Alliteratsiya adabiy va she'riy matnlarda ko'p qo'llaniladigan badiiy usullardan biri bo'lib, u bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi orqali matnga jarangdorlik va hissiy ta'sir beradi. Quyida alliteratsiyaning asosiy xususiyatlarini keltirib o'tamiz:

1. Tovush takrorlanishi. Takrorlanadigan tovushlar orqali yaratilgan uyg'unlik o'quvchining e'tiborini tortadi va matnga hissiy kuch beradi.

2. Ritm yaratish. Alliteratsiya yordamida matnda ritmik jimjimadorlik hosil bo'ladi. Takrorlanuvchi undosh tovushlar she'rning umumiy oqimiga bir maromli uyg'unlik kiritadi. Natijada matnda hosil bo'lgan ritm va ohang asar ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchi matnni oson qabul qiladi.

3. His-tuyg'ularni kuchaytirish. Alliteratsiya matnda hissiy kayfiyatni shakllantirishda ishlatiladi. Masalan, yumshoq yoki shovqinli tovushlar muayyan hissiyotni kuchaytiradi (tinchlik, qo'rquv, hayajon va boshqalar).

Hamda muayyan tovushlarni takrorlash orqali alliteratsiya matndagi fikr yoki g'oyalarni urg'ulashga va ularni esda qolarli qilishga xizmat qiladi.

4. O'qishni va yod olishni osonlashtiradi. Alliteratsiya qo'llanilgan satrlar yoki so'zlar xotirada osonroq yodda qoladi. Bu, ayniqsa, og'zaki ijro etiladigan she'rlar va hikoyalarda foyda beradi. Takrorlanadigan tovushlar matnni tezroq tushunish va eslab qolish imkonini beradi.

5. Mazmuniy urg'u. Alliteratsiya, ba'zan, matndagi asosiy g'oya yoki fikrni urg'ulashga xizmat qiladi.

Takrorlanadigan tovushlar o'quvchining diqqatini ma'lum so'zlarga qaratadi, bu esa mazmunni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, alliteratsiya she'r va badiiy matnlarning tovushli ifodaviyligini oshirish, ularni yanada boy va esda qolarli qilish uchun ishlatiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent: Fan.1983. 9-b
2. Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o'rni. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent: Fan.2009. № 4.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi. 1985.12-b
4. Jahonov K. Mumtoz she'riyat latofati. Buxoro: Durdon.2014 b-50
5. Yo'ldoshev M. va boshq. Matn lingvistikasi. T.2020. b-68
6. Қўнғуров Р. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ, 2008, 397–бет.
Internet saytlari:
7. ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/elbek-1898-1939
8. https://www.facebook.com/groups/2594428244156918/posts/3688570954742636/?_rdc